

Sobirova Shoxsanam Murodjon qizi

O'zDJTU talabasi

Yuldasheva S.F

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turkiyaning chirkin yuzi, u yerdagi ahloqsizliklar, "g'arblashish" termini ortidan bo'layotgan razilliklar, yoshlarning ahlogi buzilishi kabi muammolar muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Chamliji, Buyuk masjid, qariyalar uyi, "g'arblashish", qoloq, g'arbliklar.*

Turkiya. Turkiya deganda hammaning ko'z oldiga birinchi bo'lib Qora dengiz kelsa kerak. U geografik tuzilishi bo'yicha ham Yevropa ham Osiyoga qarashli yagona davlat bo'lib, uni Bosfor bo'g'ozi ajratib turadi. Lekin men Turkiya deganda birinchi bo'lib Usmonlilar imperiyasini eslayman. U yerdagi ko'pgina turistlar shu va hatto bundan oldingi, ya'ni Vizantiya davrida qurilgan yodgorliklarni ziyorat qilish uchun uzoq o'lkalardan kelishadi. Mehmonlar Turkiyaning faqatgina tashqi dunyosi bilan tanishadilar. U yerdagi go'zal binolar, shinam qahvaxonalar, kiyim-kechaklar dunyosi va albatta, plyajlariga mast bo'lib, uning haqiqiy yuzini ko'ra olmaydilar. Men bugungi maqolamda sizlarga Turkiyaning chirkin yuzi haqida so'zlab bermoqchiman.

Istanbulning 2 ta yuzi bor: biri Sharqqa qaragan, biri esa G'arbg'a. Istanbulga borgan kishi undagi muhitni ko'rib ajablanmasdan qolmasa kerak, chunki u yerda yappyalang'och g'arbliklarni ham, butun vujudi bilan o'rangan muslimalarni ham uchratish mumkin. U yerda yana bir diqqatni tortadigan narsa- hech kim hech kim bilan ishi yo'q, muslim va muslimalar nomoz o'qib o'tirar ekanlar, g'ayridinlar ularning orasida bemalol, hijolat ham bo'lmay o'z ko'ngilxushliklarini qilaveradilar.

Chamlijidagi Buyuk masjidini bilmagan, uning yonida rasmga tushmagan o'zbek bo'lmasa kerak. Bu mashhur mahallada 26 ta masjid bo'lib, 27-si Buyuk Chamliji masjidi hisoblanadi. Eng achinarli tarafi shundaki, bu masjidlar bo'm-bo'sh, hech kim namoz o'qimaydi. U yerda 2 kishini uchratishingiz mumkin: biri namoz o'qiyotgan kishi bo'lса, ikkinchisi imomdir. Mahallalarda qanchadan qancha och, nochor insonlar bor ekan, 26 ta masjidi bor mahallaga 27- bo'lib 63 ming kishilik, peshtoqlari oltindan bo'lgan masjid qurdirishning nima keragi bor? Eronlik sotsiolog va olim Ali Shariatiy yozganidek:"Million million pul sarflab masjid quriladi va ichiga kirib, Allohim, faqirlarga yordam ber, deya duo qilinadi".

Turkiyada istiqomas qiluvechi bir muslima maqolasida shunday yozgan edi:"Mahallamda to'rtta qariyalar uyi bor, hammasi to'la. Ularning har birini birma bir aylanib chiqtim, bo'sh joy yo'q deyishdi. Xech qaysi bola ota-onasiga qaramaydi, ular

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

qariy boshlashlari bilan qariyalar uyi qidirishga tushib qolishadi. Yana bu huzrsiz uylarini "Huzur uyi" deya nomlashgan" - deya kuyunib yozadi Marziya Saydam.

Turkiyani islomiy davlat deb bilsak-da, "g'arblashish" degan chirkin g'oya u yerda ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Ba'zan turklarning ming yillik ulug' daraxtlariga najas yog'dirayotganini, o'sha daraxtlar orasida ayol va ayol, yoki erkak va erkak inson chidab tura olmaydigan ishlar qilayotganiga ko'zimiz tushadi. Yana buni behayolarcha internet tarmoqlarida ko'z-ko'z qiladilar. O'z-o'zini anglamagan, dinini tushunmaganlar esa ularni qo'llab quvvatlaydilar. Bunday erkinlikning orqasida g'arblashish turmayaptimi? G'arbliklar taraqqiyotning cho'qqisiga chiqqan paytda afrikaliklar yalang'och yurardilar. G'arbliklar esa ularni qoloq deya masxara qilardilar. Hozir esa g'arbliklarning o'zi yalang'och. Qiziq, bu g'oya hali ham o'z kuchida qolganmikn?

Ko'pchilik turk ayollari hohlagan ishlarini qiladilar, misol uchun o'rta oilada yashayotgan ayollar ham ko'ngli tusagan paytda faxsh joylarga borib ko'ngilxushlik qiladilar, raqsga tushadilar, aroq kabi harom bo'lgan ichimliklarni ichadilar. Eng qiziqarlisi shuki, erlari bunga oddiy holdek qaraydilar. O'zbekistonning kanallaridan joy olgan va ko'plab tomoshabinlar tomonidan talab etilayotgan turk kinolarida ko'rayotgan voqealar aslo uydirma emas. Ularning ko'pchiligi real voqealarga asoslangan. Faqatgina Turkiyaning chirkin yuzini berkitish uchungina va o'zlarini oqlash uchungina to'qima voqealarga asoslanga deya yozishadi. Shuning uchun ham Turkiyada birov birovning xotiniga ko'z olaytirgan, birov birovning erini yo'lidan urgan, sutxo'rlik, yolg'onchilik, ig'vo, g'iybat, bir-birini ko'ra olmaslik, boylik ketidan quvish, mansabparastlik kabi illatlar avjida. Bularning asosiy sabablari dinsizlik emasmi? Ho'sh, bundan keyin ham Turkiyaga bo'lgan muhabbatingiz, unga bo'lgan intilishingiz hali ham o'sha o'shami? Ko'zingizni kattaroq oching, ey, iyomon keltirganlar. Kimga taqlid qilayotganingizga bir nazar soling, zero, bizga faqatgina payg'ambarimiz Muhammad (a.s) dek insonga taqlid qilish yarashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Marziya Saydam - 'Fantom og'rig'i"

<https://youtu.be/CUX8v7J7gXs>

<https://youtube.com/shorts/8VCRztYjG1k?feature=share>